



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA ROMAN JANRINING MAYDONGA KELISH OMILLARI VA TARAQQIYOT TAMOYILLARI

Lutfullayev Jaxongir Amirovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek bolalar adabiyotida roman janrining maydonga kelish omillari va taraqqiyot xususiyatlari G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi, Hakim Nazirning “Lochin qanotlari”, Yo.Shukurovning “Qasos”, L.Mahmudovning “Qopga yashiringan odam”, X.To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi”, “Quyvonlar saltanati”, Besh bolali yigitcha”, “Mungli ko‘zlar” romanlari tasniflash, tavsiflash, qiyoslash usullaridan foydalanib tahlil qilindi. Natijada bir qancha ilmiy xulosalarga kelindi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek bolalar adabiyoti, roman janri, romanchilik, bolalar romanchiligi, o‘zbek bolalar romanchiligining yuzaga kelish omillari, o‘zbek bolalar romanchiligining taraqqiyot tamoyillari.

ФАКТОРЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ РОМАНТИЧЕСКОГО ЖАНРА В УЗБЕКИСТАНЕ. ДЕТСКАЯ ЛИТЕРАТУРА И ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ

Лутфуллаев Жахонгир Амирович

Джизакский государственный педагогический университет, доцент

Аннотация

В данной статье с помощью методов классификации, описания и сравнения романов «Шум Бола» Гафура Гулама, «Крылья сокола» Хакима Назира, «Мечь» Ё. Шукурова, «Человек, спрятанный в мешке» Л. Махмудова, «Верхом на Желтом Великане» Х. Тохтабоева, «Смерть Желтого Великана», «Страна сладких дынь, или Битва волшебников», «Царство кроликов», «Юноша с пятью детьми» и «Глаза Луны» проанализированы факторы возникновения и развития жанра романа в узбекской детской литературе. В результате сделан ряд научных выводов.

Ключевые слова: узбекская детская литература, романский жанр, написание романов, детские романы, факторы возникновения узбекской детской литературы, Принципы развития узбекской детской художественной литературы.

FACTORS OF THE EMERGENCE OF THE NOVEL GENRE IN UZBEKISTAN CHILDREN'S LITERATURE AND DEVELOPMENT PRINCIPLES

Lutfullayev Jakhongir Amirovich

Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor

Abstract

In this article, the factors of the emergence and development of the novel genre in Uzbek children's literature were analyzed using the methods of classification, description, and comparison of the novels "Shum Bola" by Gafur Ghulam, "Falcon Wings" by Hakim Nazir, "Revenge" by Yo. Shukurov, "A Man Hidden in a Bag" by L. Mahmudov, "Riding the Yellow Giant" by Kh. Tokhtaboyev, "The Death of the Yellow Giant", "The Country of Sweet Melons or the Battle of the Wizards", "The Kingdom of Rabbits", "The Young Man with Five Children", and "The Eyes of the Moon". As a result, a number of scientific conclusions were drawn.

Keywords: Uzbek children's literature, novel genre, novel writing, children's novels, factors of emergence of Uzbek children's novels, Principles of development of Uzbek children's fiction.

Avvalo, shuni alohida qayd etish kerakki, o'zbek adabiyotida roman janrining maydonga kelishi yo'lidagi dastlabki izlanishlar XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Tom ma'nodagi birinchi milliy romanimiz yaratilganiga salkam bir asr bo'lgan bo'lsa-da, bolalar adabiyotida roman janrida asar yaratish yo'lidagi harakatlar boshlanganiga bor-yo'g'i yarim asr bo'lmoqda.

Buning asosiy sabablaridan biri, nazarimizda, bolalar adabiyotining yosh guruhlariga ajratilishi bilan bevosita bog'liq. O'zbek bolalar adabiyotining dastlabki namunalari, shu ma'noda, kichik maktab yoshidagi bolalar adabiyoti namunalari boshlangan bo'lsa, unda o'rta maktab yoshidagi hamda katta yoshdagi, ya'ni o'smirlar adabiyoti yuzaga kelishi uchun muayyan tayyorgarlik bosqichini bosib o'tish ehtiyoji bo'lgani ham ma'lum haqiqat. Chunki muayyan janrning biror xalq adabiyotida paydo bo'lishi, shakllanishi va taraqqiyotiga, odatda, xuddi shunday hayotiy zaruratlar va omillar sabab bo'lishi tan olingan haqiqatdir.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Tadqiqot obyekti sifatida G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi, Hakim Nazirning "Lochin qanotlari", Yo. Shukurovning "Qasos", L. Mahmudovning "Qopga yashiringan odam", X. To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi", "Quyonglar saltanati", "Besh bolali yigitcha", "Mungli ko'zlar" romanlari olindi. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash va qiyoslash usullaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Shu ma'noda bolalar adabiyotida roman janrining maydonga kelishi, tarkib topishi va taraqqiyoti hamda uning o'rganilish tarixiga nazar tashlasak, bolalar uchun yaratilgan romanlar sanoqli ekanligi, o'zbek bolalar romanchiligining taraqqiyot tamoyillari deyarli tahlilga tortilmaganligi, yaratilgan tadqiqotlar ham X. To'xtaboyev romanlarining ayrim o'ziga xosliklarini o'rganish bilan cheklanganini ko'ramiz. Jumladan, U. D. Musayeva "Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarining syujet va konflikt xususiyatlari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan bo'lsa, F. Yo. Jo'rayeva "Tipologik obrazlarning qiyosiy tahlili" mavzusidagi tadqiqotida L. Tolstoyning "Hojimurod" va X. To'xtaboyevning "Qasoskorning oltin boshi" asarlarini qiyosiy tahlil qilgan. R. S. Tulaboyeva "Xudoyberdi To'xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm", N. J. Yarashova esa "XXI asr o'zbek bolalar adabiyoti tili va uslubiyati" mavzusida X. To'xtaboyev ijodi misolida tadqiqot olib borgan. Shuning uchun ham o'zbek bolalar adabiyotida roman janrining maydonga kelish omillari hamda taraqqiyot tamoyillarini yaxlit holda, izchillik nuqtayi nazaridan o'rganish muhim masalalardan biridir. Fikrimizcha, o'zbek bolalar adabiyotida roman janrining maydonga kelishida quyidagilar muhim omil bo'lib xizmat qilgan:

1. Ma'lumki, deyarli barcha xalqlar adabiyotida xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotning yuzaga kelishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, bolalar adabiyoti ham bundan mustasno bo'lmay, kattalar adabiyoti singari, avvalo, folklordan oziqlanadi. Binobarin, o'zbek bolalar romanchiligining shakllanishida ertak, lof, mif, afsona va rivoyat kabi janrlar o'ziga xos o'ringa ega. Fikrimiz dalili sifatida X. To'xtaboyevning "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi", "Shirin qovunlar mamlakati" romanlarini keltirishimiz mumkin. Zero, "Sariq devni minib" romanidagi qator tasvirlar xalq ertaklari va mifologiyasi bilan bog'liq tarzda yoritilgan bo'lsa, "Shirin qovunlar mamlakati" romani ertak syujeti asosida yaratilgan ham fikrimizni tasdiqlaydi.
2. Mumtoz adabiyotdan ta'sirlanish. O'zbek bolalar romanchiligida sarguzasht-fantastik xususiyat yetakchilik qilishi ma'lum haqiqat ekan, bunda, avvalo, mumtoz adabiyotimiz, xususan, Alisher Navoiy ijodidan adabiy ta'sirlanish alohida o'rin tutishi tabiiydir. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy" dostonlarida tasvirlangan tilsimotlar va ularning yechimi bilan bog'liq sarguzashtlar fikrimizga dalil bo'la oladi.
3. Jahon bolalar adabiyotining ta'siri. Hech bir xalq adabiyoti o'z-o'zidan rivojlanmasligi, uning taraqqiyotida o'zga xalqlar adabiyotlaridan ta'sirlanish ham o'ziga xos o'rin tutishi adabiyotshunoslikda ko'plab misollar bilan tasdiqlangan haqiqatdir. Shu ma'noda Nikolay Nosovning Bilmasvoy haqidagi mashhur trilogiyasi bosh qahramoni Bilmasvoy bilan X.

To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romani qahramoni Hoshimjon obrazlari muayyan jihatlari bilan bir-biriga o‘xshab ketishi ushbu ijodiy ta’sirlanishning o‘ziga xos misoli sifatida e’tiborga molikdir.

4. XX asr o‘zbek adabiyoti. Bir adabiyot ichida o‘zaro ta’sir masalasi adabiyotshunoslikda ko‘p tadqiq etilgan muammolardan biri ekani ham sir emas. Shu jihatdan G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasi o‘zbek bolalar romanchiligining shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. “Shum bola” qissasidagi Qoravoy obrazi bilan “Sariq devni minib” romanidagi Hoshimjon obrazidagi umumiyliklar, badiiy tasvirdagi o‘xshashliklar fikrimizni dalillaydi.

Bundan tashqari, o‘zbek bolalar adabiyotida roman janrining yuzaga kelishida hayotiy ehtiyoj ham birlamchi xarakterga ega. Chunki qator xalqlar bolalar adabiyotida roman janri mavjud ekani, yozuvchilar ana shu tajribalardan ta’sirlangani, hayotni epik ko‘lamda tasvirlashda roman janrining imkoniyatlari kengligi o‘zbek bolalar adabiyotida ham roman janrining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi.

O‘zbek bolalar adabiyotida roman janridagi dastlabki asar Hakim Nazirning “Lochin qanotlari” romanidir. Roman 1969–1972-yillar oralig‘ida yaratilgan. Asarda Ikkinchi jahon urushida xalqimiz ko‘rsatgan jasoratlar va urushdan keyingi tiklanish davri voqealari qalamga olingan. Asar qahramoni O‘ktam mulohazali, aqlli, farosatli, fantaziyasi boy, ijtimoiy-tashkiliy ishlarda faol pionerovjatiy, aeroklub instruktorigi sifatida tasvirlangan.

Garchi roman o‘sha davrda iliq kutib olinib, ko‘plab bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan bo‘lsa-da, bola ruhiyatiga to‘la mos emasligi, asosan, davr muammolarini ochishga hamda sho‘ro siyosatiga xizmat qilgani bois o‘z missiyasini to‘laqonli bajara olmagan.

Dushmanlarga nafrat, turli qora kuchlarga qarshi kurash, gumanizm g‘oyalari L. Mahmudovning “Qopga yashiringan odam” nomli sarguzasht romanida ham tasvirlangan. Romanda o‘sha davr Sovet davlatining ilk qadamlari bilan bog‘liq ziddiyatlar, siyosiy kurashlar, qishloqlarda maktablar ochilishi, qishloq bolalarini maktabga jalb qilish masalalari aks ettirilgan.

Romanda Asqar, Shahlo, Munira va Mirqobil obrazlari bilan birgalikda asarning so‘nggi sahifalarigacha sir saqlangan Murodilla va u kabi salbiy kuchlarga qarshi kurash tasvirlangan. “O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon” jamoaviy monografiyasida “Badiiy adabiyotdagi sir saqlash usuli “Qopga yashiringan odam” romanining sarguzashtli-o‘qimishli bo‘lishini ta’minlagan va mazkur roman ustida avtorning jiddiy ijodiy mehnat qilganini tasdiqlaydi” [6.242], deya qayd etiladi. Adabiyotshunos P. Shermuhammedov romandagi obrazlar haqida fikr bildirib, Mullado‘st obrazining “ovsar” xola, Anzorlarning Asqar, Shahlo, Munira va Mirqobillar bilan kurashida bo‘yab-bejab ko‘rsatilmaganligi uchun muvaffaqiyatli chiqqanligini e’tirof etadi [7.35]. Safo Matjon esa Mullado‘st salbiy obraz sifatida tip darajasida ustamon, makkor qilib tasvirlanganligi uchun kitobxon nafratiga sabab bo‘lganligini ta’kidlaydi [5.32].

Urush mavzusidagi asarlarda maorif masalasi, bolalarning maktab hayoti bilan bog‘liq lavhalar tasvirini boshqa asarlarda ham uchratamiz. X. To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” romanida ham urush davridagi maktab, internat bolalari hayoti tasvirlangan. Mariya Pavlovna kabi zahmatkash direktor va o‘qituvchilar o‘quvchilarning yaxshi bilim olishi uchun bor kuchi bilan harakat qilganini ko‘ramiz.

“Qopga yashiringan odam” romanida rus muallimasi Raisa Maksimovna obrazi tasvirlanadi. Mariya Pavlovnadan farqli o‘laroq, yozuvchi Raisa Maksimovna obrazini o‘ta darajada bo‘rttirib tasvirlaydi. Asardagi “Qizbuloq” afsonasi bilan Raisa Maksimovna taqdirining chambarchas bog‘lab tasvirlanishi, go‘yo ko‘zi xiralashgan odam shu buloq suvidan ichsa ko‘zi ravshanlashishi haqidagi tasvirlar o‘zbek xalqining inqilobgacha ko‘zi xira tortgani, Raisa Maksimovna kabi rus muallimalari ta’sirida esa o‘tmishda xiralashgan xalqimiz ongi tiniqlashgani mazmunida xulosa chiqarishga olib keladi.

Ushbu roman tahlilida adabiyotshunos olim Q. Qahramonov asar bosh qahramonlari va ular harakat qilayotgan zamon o‘rtasida dialektik uyg‘unlik buzilganligini to‘g‘ri ta’kidlaydi [2.97].

Haqiqatan ham romandagi ayni jihatlar va asarning, asosan, sho‘ro siyosati manfaatlariga xizmat qilishi, “sotsialistik tuzum”ning ulug‘lanishi vaqt o‘tishi bilan asarning badiiy qiymati pasayishiga sabab bo‘lgan.

O‘zbek bolalar adabiyotida harbiy-vatanparvarlik mavzusida yaratilgan romanlardan yana biri Yoqubjon Shukurovning uch qismdan iborat “Qasos” romanidir. Romanning birinchi kitobi 1959-yilda, ikkinchisi 1962-yilda, uchinchisi esa 1964-yilda nashr etilgan.

Roman o‘z davrida katta qiziqish bilan kutib olingan. Asar M. Husainov va Q. Qahramonovlar tomonidan tahlil qilingan.

Roman syujetida Andijon, O‘sh, Jalolobod, Qorasuv shaharlari, ko‘plab yondosh qishloqlar, Odessa va Benderi kabi katta geografik hudud bo‘ylab Oktabr inqilobi arafasi va undan keyingi yillar, 1941–1945-yillar urushi bilan bog‘liq qariyb qirq yillik voqealar qamrab olingan.

Asar qahramoni O‘lmas Omonov yoshligidan yetim qolib, hayotda turli ziddiyatlarga duch keladi. Uning bosmachilar, chet el josuslari, inqilob dushmanlari hamda nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashi tasvirlanadi. Shu voqealar va epizodlar O‘lmas obrazining dinamik o‘sib borishi, psixologik jihatlarini ko‘rsatadi.

Asarda O‘lmas bir necha marta dushman sirtmog‘iga tushadi, o‘limga tik boradi, insoniylikni unutmaydi, haqiqiy yigitlik g‘ururi bilan yashaydi. Shu jihatlarini hisobga olsak, muallif “sarguzasht adabiyoti traditsiyasi yo‘lidan dadil borgan, lekin romanda sarguzasht motivi asar g‘oyaviy ma‘nosida ustun emas” [6.242]ligini ko‘rish mumkin. Romanda yurt uchun kurash va g‘alabani hikoya qilish ruhi ustuvor bo‘lsa-da, badiiy tasvirdan ko‘ra bayonchilik yetakchilik qiladi.

Hakim Nazirning “Lochin qanotlari”, L. Mahmudovning “Qopga yashiringan odam”, Yo. Shukurovning “Qasos” romanlari xususida shunday umumlashma xulosaga kelish mumkinki, ushbu asarlar o‘zbek bolalar romanchiligining ilk qadamlari, izlanishlari natijasidir. Biroq o‘zbek bolalar romanchiligining tom ma‘nodagi taraqqiyotini X. To‘xtaboyev ijodisiz tasavvur qilish qiyin.

O‘zbek bolalar nasrining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lgan Nosir Fozilov “Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi” maqolasida bolalar ijodkorlari haqida shunday yozadi: “Avvalo, bolalik bu — beg‘uborlik. Bolalar uchun asar yozgan va butun umrini shunga bag‘ishlagan adib ham bu beg‘uborlikdan bebahra qolmaydi. Negaki, bolaga yozgan adibning o‘zi bola tabiatli bo‘ladi. Yaxshi yozuvchi o‘zining tabiatiga mos, ko‘ngliga yaqin mavzuni qalamga oladi. Ikkinchidan, bolalarni chin dildan sevgan yozuvchigina bolalar adabiyotiga sodiq bo‘lib qoladi. Bolalar hayoti ko‘nglidan yiroq bo‘lgan yozuvchi o‘zini majburlab nimarsa yozgan bo‘ladi-yu, bir yumalab kattalar adabiyotiga o‘tadi-ketadi. Bundaylar adabiyotimizda to‘lib-toshib yotibdi” [1].

Yozuvchi haq. Haqiqatan ham bolalar uchun ijod qiladigan ijodkor boladek bo‘lishi, bolalar bilan gaplashganda ularning ruhiyatini his qilishi, asar yozayotganda bola nazari bilan ko‘rishi, his qilishi va yozishi kerak. Asarni o‘qiganda bola asar qahramoni xarakteri, xatti-harakati, o‘zini tutishidan o‘z hayoti, o‘rtoqlarining qiliqlari va xarakterini topa olsa, ana shunday asarni qiziqib o‘qiydi. Aks holda u “adressiz asar” sifatida bir o‘qilib, kitob javonlarida chang bosib, o‘z o‘quvchisini kutib yotaveradi.

N. Fozilov aytgan “bir-ikkita nimarsa yozib, bir yumalab, kattalar adabiyotiga o‘tib ketgan” ijodkorlarning asarlari taqdiri ham shunday bo‘lgan yoki ularda bola tabiatlilik bo‘lmagani uchun asarlari bolalar dilidan joy olmagan.

Bolalarning sevimli yozuvchisi, O‘zbekiston xalq yozuvchisi X. To‘xtaboyev bolalar uchun ijod qilishni o‘zining qismati deb bilgan. Chunki u, asosan, o‘zi yaxshi bilgan, hatto ko‘pchilik holatda o‘z boshidan kechirgan voqealar haqida yozgan, ularni mavzu sifatida qalamga olgan. Ijodkor bolalar uchun qancha ijod qilib, bir necha marta yumalab ham, yana qayta-qayta bolalar adabiyoti dunyosiga qaytib tushavergan. Shu bois ham yozuvchi asarlarini nafaqat o‘zbek bolalari, balki dunyo xalqlari bolalari ham sevib o‘qishadi, ardoqlashadi.

Adibning ijod yo‘liga qisqacha nazar tashlaydigan bo‘lsak, bolalar uchun ijodini dastlab hikoyalar va qissalar yozishdan boshlagan yozuvchi keyinchalik turlicha yo‘nalishlardagi o‘nlab romanlar yaratdi. Bu asarlarning asosiy qismi o‘n martalab qayta chop etilgani va dunyo xalqlarining 30 dan ortiq tillariga tarjima qilingani yozuvchi yaratgan asarlarning naqadar umrboqiyiligini tasdiqlaydi. Demakki, o‘zbek bolalar romanchiligining salkam yarim asrlik taraqqiyot yo‘nalishini ham X. To‘xtaboyev qalamiga mansub romanlar belgilaydi desak, aslo adashmagan bo‘lamiz. Shu o‘rinda X. To‘xtaboyevning ijodiy takomilini belgilaydigan bir jihat haqida alohida to‘xtalish ehtiyoji bor. Gap shundaki, yozuvchi bir asarini dastlab hikoya yoki qissa tarzida yaratadi. Ushbu asarning yosh kitobxonlar tomonidan qanchalik qiziqish bilan qabul qilinishi esa uning keyingi taqdirini belgilaydi. Masalan, “Sehrli qalpoqcha”ning janri dastlab 1965-yildagi nashrida “sarguzasht povest” deb belgilangan bo‘lsa, 1969-yilgi nashrida “Sariq devni minib. 3 qismli sarguzasht qissa” deb, 1973-yilga kelib esa asar “Sariq devning o‘limi. Sarguzasht roman” deb belgilangan. Nashrdan nashrga asar nomi o‘zgarib borgani sari uning voqealari ham kengayib, yangi-yangi ko‘rinishlar bilan boyib boradi. Dastlabki nashrda 6-sinf o‘quvchisi bo‘lgan Hoshimjon fikri har zumda o‘zgarib, u yoqdan bu yoqqa sakrab yuradigan, sabot bilan bilim olish o‘rniga sehrli qalpoqcha yordamida hali u kasb, hali bu kasb egasi bo‘lishga harakat qiladigan tajribasiz yosh bola bo‘lsa, “Sariq devning o‘limi”da fikr doirasi, dunyoqarashi kengayib, el-yurt manfaati yo‘lida halol xizmat qiladigan, xalq nonini tuya qiladigan tekinxo‘r jinoyatchilarga qarshi omonsiz kurashadigan militsioner darajasiga yetadi. Ushbu birgina qayd yozuvchining asardan asarga yaratayotgan kitoblari badiiy jihatdan yanada takomillashgani, voqealar rivoji yanada ishonarli bo‘lgani, har tomonlama asoslangan tom ma‘nodagi badiiy asarga aylanishi yo‘lida tinimsiz izlanganini tasdiqlaydi. Bu esa ijodiy kamolot, ya‘ni hikoyadan qissaga, qissadan romanga o‘sish bosqichi tadrijini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda yozuvchi asarlari uchun asos bo‘lib xizmat qilgan voqealarning hayotiyliigi haqida ham qisqacha to‘xtalish zarur. Jumladan, X. To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi” romanlarining yuzaga kelish omillariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, yozuvchi o‘tgan asrning 60-yillarida feletonchilik bilan shug‘ullanib, uch yuzdan ortiq feleton yozganini eslash joiz. U feleton yozish uchun bir qancha jinoyatlarni tekshirgani, poraxo‘r, chayqovchi, tovlamachilarga qarshi kurashgani keyinchalik badiiy asarlari, jumladan, romanlarining yaratilishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Bu holat, ayniqsa, “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrarlar jangi” romanlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Sariq devning o‘limi” romanida yozuvchi Odil battol boshchiligidagi jinoiy guruh faoliyati va Hoshimjonning militsiya xodimi sifatida poraxo‘rlik, qotillik, chayqovchilik, tovlamachilik, umuman olganda, insoniylikka yot bo‘lgan illatlar va sarqitlarga qarshi kurashini tasvirlar ekan, ushbu tasvirlarning tub mohiyatida feletonchilik faoliyati davomida yig‘ilgan muayyan ma‘lumotlardan o‘rni-o‘rni bilan foydalangani namoyon bo‘ladi. Biroq yozuvchi romanlaridagi bunday kurash jarayonlarining asosini faqatgina uning feletonchilik faoliyati bilan shug‘ullanganligiga bog‘lasak, biryoqlama fikrlagan bo‘lamiz. Chunki hayot haqiqatining tom ma‘nodagi badiiy haqiqatga aylanishi, aslida, yozuvchining bu kabi ko‘plab jihatlarni badiiy umumlashmaga aylantira olish mahorati bilan belgilanadi.

Akademik M. Qo‘shjonov “O‘zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari” asarida o‘zbek romanchiligining taraqqiyot xususiyatlariga to‘xtalib, quyidagicha tasnif etadi:

1. Birinchi o‘zbek romanlarining tug‘ilishi va taraqqiyot masalalari.
2. Tarixiy materialning zamonaviyligi va ijodiy an‘analar.
3. Yangicha tafakkurning uyg‘onishi, eskicha qarashlarning yashovchanligi.
4. Turg‘unlik davri o‘zbek romanchiligining janr xilma-xilligi.
5. Qayta qurish va bugungi roman [4. 299–382].

Adabiyotshunos H. Karimov “O‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari” qo‘llanmasida o‘zbek romanchiligi taraqqiyot tamoyillarini romanchilik taraqqiyotiga ta‘sir etgan

muhim davrlar va “roman evolyutsiyasi” nuqtayi nazaridan tahlil qilgan [3.3]. Ma’lumki, adabiyotni davrlashtirishda ko‘proq san’at va adabiyotdagi muhim o‘zgarishlar hisobga olinadi. H. Karimov ham ana shu yo‘ldan boradi. U 20-yillarda hayotda tuzum o‘zgarishi bilan o‘tmish qadriyatlari, urf-odatlar, ma’rifat, davlat tuzumi tendensiyasi o‘zgara boshlagani, bu esa noto‘g‘ri talqinlarga sabab bo‘lganini qayd qiladi. 30-yillarda barchani jamoa xo‘jaligiga jalb qilish, kollektivlashtirish orqali inson baxtga erishishi mumkinligi singdirilgan asarlar yaratila boshlangani, bu insonlarning jamoa bo‘lib harakat qilishidek ezgu amal bilan birga ayrim kishilarda yalqovlik kayfiyatini yuzaga keltirgani badiiy asarlarda tasvirlab ko‘rsatilganini ta’kidlaydi. Olim urush davrida yaratilgan asarlarda hayot o‘zining haqqoniy tasvirini topmagani, Ikkinchi jahon urushidan keyin yuzaga kelgan romanlarda hayotiy mantiqqa zid bo‘lgan konfliktsizlik nazariyasi yuzaga kelgani, 50–80-yillarda shaxsga sig‘inishga barham berilgani, adabiyotda juda katta sifat o‘zgarishlari bo‘lganini ta’kidlaydi. Ushbu fikrlarga qo‘shilgan holda yuqoridagi qo‘llanmada romanlarda qayd qilingan tamoyillarning ayrim jihatlaridan o‘zbek bolalar romanchiligi taraqqiyot tamoyillarini belgilashda foydalanamiz. Lekin o‘zbek bolalar romanchiligining maydonga kelishi va taraqqiyot tamoyillarini ularda keltirilganidek, aynan bolalar romanchiligiga to‘laligicha tatbiq qilish mumkin emas. Chunki o‘zbek bolalar romanchiligi, yuqorida qayd etilganidek, bir muddat kechroq yuzaga kelgan. Shu jihatlarni hisobga olib, o‘zbek bolalar romanchiligining yuzaga kelishi va evolyutsiyasini mavzuviy nuqtayi nazardan quyidagicha tasnif qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Harbiy-vatanparvarlik ruhidagi romanlar. Bunday romanlar sirasiga Yo. Shukurovning “Qasos” va L. Mahmudovning “Qopga yashiringan odam” romanlarini kiritish mumkin.
2. Ikkinchi jahon urushi davrida front orti hayoti aks etgan romanlar. X. To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha” romani ana shunday romanlar jumlasidandir.
3. Tarixiy shaxslar hayoti aks etgan romanlar. Bunday romanlarga misol qilib X. To‘xtaboyevning “Qasoskorning oltin boshi” romanini keltirish mumkin.
4. O‘tmish sarqitlari, diniy xurofotlar, jinoyatchilikka qarshi kurash mavzusi aks etgan romanlar. Bunday romanlar sifatida X. To‘xtaboyevning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi”, “Shirin qovunlar mamlakati yoki sehrgarlar jangi” asarlarini sanash mumkin.
5. Inson kamoloti, ilm-ma’rifat, kasb egallash bilan bog‘liq romanlar. O‘zbek bolalar adabiyotida katta shuhrat qozongan “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” va “Quyvonlar saltanati” romanlarida o‘qimagan bolaning har maqomga yo‘rg‘alashi, biror natijaga erishish uchun insonga bilim, ko‘nikma va malaka suv va havodek zarurligi tasvirlangan.
6. Istiqloq sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy va diniy qadriyatlarimiz tiklanishi natijasida xalqimizning keyingi salkam bir asrlik tarixining turli jabhalarini qamrab oladigan, tom ma’noda yosh avlod ma’naviy kamolotiga xizmat qiladigan asarlar. Bunday asarlar sirasiga X. To‘xtaboyevning “Jannati odamlar” va “Mungli ko‘zlar” romanlari kiradi.

Xulosa. Xullas, o‘zbek bolalar romanchiligiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, deyarli barcha romanlar sarguzasht janrida yaratilganining guvohi bo‘lamiz. Biroq ularning biri sarguzasht-fantastika, boshqasi tarixiy-sarguzasht, yana biri esa sarguzasht-detektiv ko‘rinishida yaratilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Fozilov N. Adabiyot yasalmaydi, yaratiladi [Elektron manba]. — URL: www.kh-davron.uz
2. Adabiy tanqid va o‘zbek bolalar adabiyoti. — Toshkent: Fan, 1991.
3. Karimov H. O‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2008.
4. Qo‘shjonov M. O‘zbek romanchiligining rivojlanish bosqichlari va janr xususiyatlari // Adabiy tur va janrlar. — 3 jildlik. — 1-jild. — Toshkent: Fan, 1991.
5. Matchonov S. Maktabda bolalar adabiyotini sinfdan tashqari o‘qish. — Toshkent, 1980.
6. O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. — Toshkent: Fan, 1989.
7. Shermuhammedov P. Iste’dod sehri. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1977.